

AHOLI JOYLASHUVINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

Xidiraliyev Komil Esanovich.

Guliston davlat universiteti

"Ekologiya va geografiya" kafedrası dotsenti, g.f.n.

Yo'ldoshev Ahliddin Abdulla o'g'li

Guliston davlat universiteti

Geografiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

Ibadullayev Alim Edem o'g'li

Guliston davlat universiteti

Geografiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi joylashuvining hududiy xususiyatlari vaqt va makon nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, aholini o'ziga xos hududiy jihatlari aholi geografiyasi fani nuqtai nazardan misollar asosida ifodalangan. O'z navbatida yangi o'zlashtirilgan hudud hisoblanmish, Sirdaryo viloyati aholisi joylashuvida geografik asoslar ilmiy talqin qilingan.

Kalit so'zlar. Hudud, joylashuv, xususiyat, viloyat, resurs, geografik asos, aholi manzilgohi, tarixiy taraqqiyot, urbanizatsiya, hududiy rivojlanish.

TERRITORIAL FEATURES OF POPULATION SETTLEMENT

Khidiraliyev Komil Esanovich

Associate Professor of the "Ecology and Geography" Department of

Gulistan State University. g.f.n.

Yuldoshev Ahliddin Abdulla oglu

Gulistan State University

1st year master's student in Geography.

Ibadullayev Alim Edem ogli

Gulistan State University

1st year master's student in Geography.

Abstract. This article covers the territorial features of population distribution from the perspective of time and space. Also, the specific territorial aspects of the population are expressed based on examples from the perspective of population geography. In turn, the geographical basis of the population distribution of the Syrdarya region, which is considered a newly developed territory, is scientifically interpreted.

Keywords. Territory, location, feature, region, resource, geographical basis, population settlement, historical development, urbanization, territorial development.

Har qanday hudud makon sifatida-turli xil geografik ob'ektlarni o'zida jamlaydi. Qaysidir ma'noda hudud o'ziga xos omillar majmuasiga ega. Bu omillar har qanday geografik ob'ektni, shu jumladan aholini joylashuviga ham ta'sir etadi. Albatda, aholi joylashuvining hududiy xususiyatlarini o'rganish-bevosita va bilvosita aholi geografiyasining oldida turgan vazifalardan biridir. Bunda turli hududlarda aholining shakllanishini, uning tarkibini, zichligini va shahar hamda qishloq aholi manzilgohlarini o'rganadi. Shuningdek, aholi geografiyasi turli miqyosdagi hududlar aholisini-alohida aholi manzilgohlaridan (va hatto ularning ayrim qismlaridan) tortib, davlatlar, dunyoning ayrim qismlari va umuman Yer shari miqyosida o'rganadi.

Masalan, Rossiya aholi geografiyasida ikkita yo'nalish ajratilgan: aholini hududiy jamoalar (guruhlar) sifatida o'rganish va aholi manzilgohlarini, ularning shakllarini va joylashuvini o'rganish. Uzoq xorijda (G'arbiy Yevropa va AQSh da) aholi geografiyasi va aholi manzilgohlari geografiyasi alohida ilmiy fanlar hisoblanadi [1].

Muayyan hududni o'zlashtirilishi, qaysidir ma'noda ishchi kuchi va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlikni yoritib beradi. Hududda ishlab chiqarishni rivojlanib borishi o'z navbatida ishchi kuchini o'ziga tortadi, yoki aksincha ishchi kuchini hududda joylashuvi ma'lum ma'noda ishlab chiqarishni o'ziga tortadi. Aholi har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xom ashyo, yoqilg'i va boshqa qo'shimcha materiallar faqat inson qo'li, mehnati tufayligina harakatga keltiriladi va ular ishlab chiqaruvchi kuchlar sifatida namoyon bo'ladi. Inson mehnati ishlab chiqarish jarayonining eng ilg'or qismidir, qolgan barcha ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish jarayonining passiv qatnashchilaridir.

Mana shu muhim holatdan aholi geografiyasi o'rganayotgan voqealarga tarixiy jihatdan yondashish zarurligi kelib chiqadi. Masalan, aholi manzilgohlarining moddiy shakllari, planirovkasi ya'ni joylanish ko'rinishi va boshqa ayrim xususiyatlari ishlab chiqarish munosabatlariga hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyot darajasiga ma'lum davrlarda mos kelmay qolishi mumkin. Chunki, ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi bilan aholi manzilgohlarining ko'p xususiyatlari (masalan, moddiy shakllari) birdaniga o'zgarib ketmaydi, ular ma'lum darajada konservativ xarakterga ega bo'lib, ancha muddat davomida eskicha saqlanib turishi mumkin. Shuning uchun ham juda ko'p hollarda aholining mavjud geografiyasini o'rganayotganda, aholi manzilgohlarining ko'pgina xususiyatlarini analiz qilayotganda o'tgan davrlarga xos bo'lgan ishlab chiqarish geografiyasiga murojat qilishga to'g'ri keladi [2].

Masalan, Toshkent eski shahar qismining planirovkasi, qurilishining moddiy shakllari eski davrlardagi ishlab chiqarish xususiyatlariga, shaharlarning qadimgi vazifalarigagina mos bo'lib, bugungi kishisining yuksak madaniy va turmush talablariga anchadan beri javob bermay qolganligi ma'lum. Lekin shunga qaramay, eski shahar tegishli qayta qurilishlar kiritish (suv tarmog'i, kanalizatsiya, ko'chalarni kengaytirish) yo'li bilan hozirgacha saqlanib kelmoqda. Keyingi yillarda, ayniqsa mustaqillik yillarida butunlay qayta qurila boshladi.

Aholining hududiy taqsimlanishi va joylashuviga tabiiy sharoit kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ammo tabiiy sharoit bilvosita ya'ni ishlab chiqarish orqali ta'sir etadi. Chunki bir xil tabiiy sharoitdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishi, binobarin tabiiy sharoitning aholi hududiy joylanishiga ta'siri turli xil ijtimoiy tuzim sharoitida, texnika taraqqiyotining turli darajasida turlicha bo'ladi.

Bu yerda shunga e'tibor berish lozimki, hududning ishlab chiqarish majmuasi qanchilik to'la va tugallangan bo'lsa mehnat resurslaridan shunchalik to'la

foydalaniladi, aksincha, ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlangan bo'lsa, mehnat resurslaridan foydalanishda katta kamchiliklar sodir bo'lishi mumkin.

Aholi joylashuvining hududiy xususiyatlarini o'rganishda aholi va uning turli xususiyatlarini, yashash joylarini, joylashuvini, o'zgarishlarini va migratsiya jarayonlarini tahlil qilishdan iborat. Bu yerda asosiy elementlar aholi soni, tarkibi, zichligi, urbanizatsiya darajasi va migratsiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Aholi joylashuvining hududiy xususiyatlarini o'rganishda e'tibor, uning qanday joylashganini, ularning yashash sharoitlari, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar bilan qanday bog'liqligini, migratsiya oqimlarini va hududlar orasidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi [3].

Aholini hududiy xususiyatlarini o'rganishda, quyidagi asosiy masalalarga e'tiborni qaratish lozim:

1. Aholi soni va tarkibini tahlil qilish: Aholi soni va uning tarkibi, ya'ni jinsi, yoshi, millati, dini va boshqa demografik xususiyatlar geografik o'rganishning asosiy jihatlaridan biridir. Har bir hududda aholi sonining o'zgarishi va tarkibining shakllanishi iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi hududning iqtisodiy salohiyatiga, mehnat bozorining talablariga ta'sir ko'rsatadi.

2. Aholi zichligi va joylashuvi: Aholi zichligi hududning maydoniga nisbatan aholi sonining miqdorini bildiradi. Bu ko'rsatkich yordamida hududdagi aholi zichligi o'rganiladi va ayni hududlarda resurslar, infratuzilma va yashash sharoitlari qanday taqsimlanganligini aniqlash mumkin. Aholi joylashuvi bilan bog'liq geografik tahlil aholining qaysi hududlarda zich yashashini va qaysi hududlarda sekin o'sish yoki kamayish jarayonlari ro'y berishini ko'rsatadi.

3. Urbanizatsiya va qishloq hududlarining rivojlanishi: Aholining shaharlarga ko'chishi yoki urbanizatsiya jarayoni geodemografik jarayonlarning muhim qismidir. Bu jarayon aholi zichligini oshiradi va shaharlar infratuzilmasini rivojlantirishga sabab bo'ladi. Aholi qishloqdan shaharlarga ko'chishi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Biroq, bu jarayon ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

4. Migratsiya jarayonlari: Migratsiya-bu aholi guruhlarining bir hududdan boshqa hududga ko'chishi. Migratsiyaning sabablari turlicha bo'lishi mumkin, jumladan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va siyosiy omillar. Aholi migratsiyasi juda muhim geografik jarayon bo'lib, u bir hududdagi resurslar, yashash sharoitlari va imkoniyatlarga bog'liq. Migratsiya oqimlari hududning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy barqarorligiga ta'sir qiladi.

5. Aholi va resurslar o'rtasidagi bog'lanish: Aholi va hududning tabiiy resurslari, yer yuzasining xususiyatlari va infratuzilma o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish juda muhimdir. Hududda aholi zichligi ko'p bo'lsa, tabiiy resurslar va infratuzilma talabining yuqori bo'lishi kutiladi. Boshqa tomondan, resurslarning yetishmasligi yoki muvozanatsiz taqsimlanishi migratsiya va aholi joylashuvi jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

6. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari: Aholining yashash sharoitlari, iqtisodiy darajasi, ta'lim olish imkoniyatlari va sog'liqni saqlash tizimi ham aholini o'rganishning hududiy asoslarini tashkil qiladi. Yashash sharoitlarining yaxshilanishi aholi salomatligini oshiradi va aholi sonining o'sishiga yordam beradi. Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, aholi migratsiyasining asosiy omillari bo'lishi mumkin.

7. Aholi va ekologik muammolar o'rtasidagi aloqalar: Aholi zichligi va ularning joylashuvi ekologik ta'sirga bevosita bog'liq. Aholining biror hududda zich joylashishi, tabiiy resurslar va ekologik tizimlarga bosim o'tkazadi. Misol uchun, shaharlarning ortib borayotgan aholisi, ularning energiya sarfi, chiqindilarni qayta ishlash, suv va havo sifatiga ta'sir qiladi. Aholi sonining oshishi bilan ekologik muammolar, masalan, atmosferaga chiqindilarni chiqarish, yer yuzasining eroziyasi va tabiiy resurslar ustida ortiqcha yuklar yuzaga keladi. Ushbu masalalarni hal etish uchun hududiy rejalashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish zarur.

8. Aholining madaniy va ijtimoiy xususiyatlari: Aholining madaniy va ijtimoiy xususiyatlari hududiy tahlilning muhim qismidir. Har bir hududda aholining madaniyati, urf-odatlar va ijtimoiy tuzilishi farqlanadi. Misol uchun, qishloq joylaridagi aholi ko'pincha agrar sohada ishlaydi va ko'proq an'anaviy tarmoqlarda faoliyat yuritadi, shaharlarda esa iqtisodiy faoliyat ko'proq sanoat va xizmatlar sohasida rivojlanadi. Aholining madaniy xususiyatlari, til, din, oilaviy tuzilmalar, va boshqa ijtimoiy omillar hududlarning rivojlanishiga, migratsiya oqimlariga va yashash sharoitlariga ta'sir ko'rsatadi.

9. Aholi hududiy rivojlanishining makro va mikro geografik tahlili: Aholining joylashuvi va rivojlanish yo'nalishi faqat umumiy hududlar bo'yicha emas, balki alohida shaharlar, qishloqlar va boshqa kichik hududlarda ham o'rganilishi kerak. Makrogeografik tahlil bir necha mintaqalar, davlatlar yoki qit'alar o'rtasidagi umumiy aholi yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, mikrogeografik tahlil aniq bir shahar, qishloq yoki tuman o'zida aholi soni va tarkibining qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Misol uchun, biror shahar yoki tuman ichida o'rganish, ularning iqtisodiy jihatlarini va infratuzilmasini qanday rivojlantirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

10. Aholini hududiy xususiyatlarini o'rganishning davlat va mintaqaviy siyosatdagi ahamiyati: Aholini hududiy xususiyatlarini o'rganish ma'lumotlari davlat va mintaqaviy siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Hududdagi aholi soni va joylashuvi, ta'lim, tibbiyot, ish o'rinlari va boshqa ijtimoiy xizmatlarning tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan asoslarni taqdim etadi. Aholini hududiy ma'lumotlari, shuningdek, transport tizimi, kommunal xizmatlar va shaharsozlikka oid siyosatlarni shakllantirishda qo'llaniladi. Agar biror hududda aholi soni o'sayotgan bo'lsa, bu hududda infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ekologik muammolarni hal qilish zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, aholi kamayayotgan hududlarda esa iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va migratsiyani boshqarish bo'yicha choralar ko'rish lozim [4, 5].

Albatda aholini hududiy xususiyatlari tahlil qilinayotganda, mantiqan tugal bo'lishida statistik ma'lumotlarning o'rni beqiyos. Aynan aholi soni va tarkibini aniqlashda statistik ma'lumotlar asosiy manba hisoblanadi. Geografik tahlilning bu sohasida statistik usullar, demografik o'sish sur'atlari, yosh guruhlarining taqsimoti, o'lim va tug'ilish ko'rsatkichlari, migratsiya oqimlari va boshqa demografik ko'rsatkichlar asosida tahlil o'tkaziladi. Ushbu tahlillar hududlar bo'yicha aholining rivojlanish istiqbollari haqida aniq prognozlar chiqarishga yordam beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida qaraydigan bo'lsak, yangi o'zlashtirilgan hudud hisoblanmish Sirdaryo viloyati aholisining joylashuv xususiyati quyidagicha.

-Aholining joylashuvi. Viloyat asosiy yo'l bilan ikki qismga bo'lingan: g'arbiy va sharqiy. Bu esa aholining yo'l atrofida joylashuviga turtki bergan;

-Agroiqlim sharoitlari. Viloyat kontinental iqlimga ega bo'lib, qish va yoz harorati o'rtasida katta farqlar mavjud. O'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 180-220 mm ni tashkil qiladi, asosan qishda yog'adi;

-Yerlardan foydalanish. Viloyatda qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun o'rganilgan minglab gektar yerlar mavjud. Hududda mos sug'orish infratuzilmasi mavjud;

-Sanoat. Viloyat qurilish materiallari va sug'orish uskunalari ishlab chiqarish, paxta xomashyosini qayta ishlash kabi sohalarga asoslangan;

-Energetika. Viloyatda O'zbekistondagi eng yirik elektr stansiyalaridan biri bo'lgan Sirdaryo IES joylashgan bo'lib, u mamlakat elektr energiyasining uchdan bir qismini ishlab chiqaradi;

-Transport. Viloyatda taxminan 400 km temir yo'l va 2000 km avtomobil yo'llari mavjud. Bu esa transport yo'li atrofida aholi joylashuviga ta'sir etadi.

Albatda aholi joylashuvining hududiy xususiyatlarida etarli ta'sir qiluvchi omil tabiat va uning resurslaridir. Mazkur holat Sirdaryo viloyatida o'zgacha. Relyefi, asosan, to'liqinsimon tekislik bo'lib, janubidan shimoliy g'arbga pasayib boradi. Mirzacho'lning bir qismi viloyat hududiga kiradi. Balandlik shimolda 230 m, markaziy qismida 400-450 m, janub va janubiy g'arbda 600-650 m. Sharqida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan. Mezozoy va kaynazoy eralarida, asosan, cho'kindi jinslarning qalin qatlami bilan qoplangan. Sho'ro'zak, Sardoba kabi botiqlar mavjud. Tekislik qismi daryolar oqizib keltirgan yotqiziklardan hosil bo'lgan, ba'zi joylarini ko'l, botqoq va sho'rxok yerlar egallagan. Sirdaryo viloyatida yangi kanallar, zovurlar qazilib, cho'l o'zlashtirildi va ekin maydonlarga aylantirildi. Tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurilib, paxtazor, bog' va tokzorlar barpo qilindi. Adirlar lalmikor yerlar va yaylovlardan iborat. Mazkur holat aholi hududiy xususiyatlarini belgilab beradi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni 930843 kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 16816 kishiga yoki 1,8 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 400718 kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,0 %), qishloq aholisi soni 530125 kishini (jami aholi sonidagi ulushi 57,0 %) ni tashkil etdi. Zichlik 217,5 kishini tashkil etadi [6, 7].

Xulosa o'rnida aytish lozimki, aholi joylashuvining hududiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

-Iqtisodiy rivojlanish darajasi. Rivojlangan iqtisodiy hududlar bandlik, ta'lim va hayot sifatini yaxshilash uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi;

-Urbanizatsiya. Bu jarayon qishloq joylarida aholining ko'payishi tufayli shaharlar aholisining ko'payishiga olib keladi. Shaharlar keng turdagi xizmatlar, ish o'rinlari va ijtimoiy infratuzilmani taklif etadi, bu ularni yashash uchun jozibador joylarga aylantiradi;

-Siyosiy va ma'muriy omillar. Hukumatning mintaqaviy rivojlanish, migratsiya va resurslarni taqsimlash bo'yicha siyosati aholi taqsimotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin;

-Migratsiya. Migratsiya oqimlari, ham ichki, ham xalqaro miqyosda, aholini mintaqalar va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlaydi;

-Yosh tarkibi. Yosh tarkibi iqtisodiy faollik va aholining harakatchanligiga ta'sir qiladi;

-Madaniy va diniy omillar. An'analar, urf-odatlar va diniy e'tiqodlar yashash joyini tanlashga ta'sir qilishi mumkin;

-Texnologik va infratuzilma omillari. Texnologiya va infratuzilmaning rivojlanishi ilgari kirish qiyin bo'lgan hududlarni rivojlantirish imkonini beradi;

-Atrof-muhit omillari va atrof-muhit sifati. Mintaqaning ekologik holati aholining sog'lig'i va hayot sifatiga ta'sir qiladi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy ofatlar va sog'liq uchun xavflar odamlarni muayyan hududlardan uzoqlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik toza va yashashga yaroqli hududlar aholini o'ziga jalb qiladi.

Mana shunday dunyoviy xususiyatlar asosida qaraydigan bo'lsak, Sirdaryo viloyatida aholi joylashuvining hududiy xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

-Aholining taxminan 90 % viloyatning sug'oriladigan hududlarida joylashgan. Mazkur holat hududning relefi va o'zlashtirish tarixi bilan chambarchas bog'liq;

-Aholi viloyat hududi markazidan o'tuvchi tranzit yo'l atrofida lentasimon joylashgan. Bu yerda shuni aytish lozimki, infratuzilma aholini o'ziga chorlovchi omil sifatida rol o'ynaydi;

-Suv tarmoqlari (Sirdaryo daryosi va undan chiquvchi kanallar) aholi manzilgohlarini joylashuvida asosiy baza sifatida xizmat qilgan;

-Yirik aholi manzilgohlari, jumladan Guliston shahri o'zining ishlab chiqarish ikoniyatiga ko'ra kuchli rivojlangan, bu esa aholi joylashuviga ijobiy ta'sir qilgan;

-Urbanizatsiyalashish bu hududda ham o'zining geografik xususiyatini ko'rsatgan holda aholi joylashuviga ijobiy ta'sir qilgan va hokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Войнова Л.В. Экономическая география: учебное пособие.- 3 изд-е испр. и доп.- СПбГТУРП.- СПб., 2015.- 86 с.

2. Социально-экономическая география. Учебное пособие. Под ред. Г.И. Гладкевич, М.С. Савоскул. – М.: Геогр. ф-т МГУ, 2015. – 234 с.

3. [A.S.Soliyev], N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov., F.T.Rajabov Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. – T.: —Universitetl, 2019. -360 b.

4. Xidiraliyev K.E. Aholi va iqtisodiy geografiya asoslari.-Guliston.-2024,-293 bet.
5. Egamkulov, K. E., & Karshibayeva, L. K. (2021). SIRDARYO VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI UNING GEOKRIMINOGEN HOLATGA TA'SIRI. Экономика и социум, (1-1 (80)), 62-64.
6. Karshibayeva, L. K., Ishankulova, K. K., & Toymbayeva, D. A. (2023). MIRZACHO 'L TIBBIY GEOGRAFIK RAYONIDAGI SOG 'LOMLASHTIRISH MASKANLARINING DAVOLOVCHI TABIIY RESURSLAR BILAN TA'MINLANGANLIGI. Экономика и социум, (1-2 (104)), 42-51.
7. Altibayeva, M., Karshibayeva, L., & Madrahimova, Z. (2022). Impact of surface water on the development of service networks of Syrdarya region. Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science Education and Training, 1(12), 58-62.